

MURIDIZM VA KAVKAZ URUSHLARI: K.P. FON KAUFMANNING TAJRIBALARI
(N.X. KNAUERNING ‘QADIMIY YURTDAGI NEMISLAR’ KITOBI MATERIALLARI
ASOSIDA)

Ibroimov Ruslan Najmuddin ógli

Buxoro shahar 8-maktab Tarix fani óqituvchisi.

Email: Ibroimovruslan1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15646927>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi harbiy arbobi va davlat xizmatchisi Konstantin Petrovich fon Kaufmanning XIX asrda Kavkazdagi harbiy-siyosiy faoliyati yoritiladi. Muallif Kaufmanning Imom Shomilga qarshi harbiy harakatlardagi ishtiroki, Dargo va Guni kabi strategik ahamiyatga ega hududlar uchun olib borilgan janglar, shuningdek, Qrim urushi davrida Kars qal'asi atrofida olib borilgan razvedka va muhim harbiy amaliyotlar haqida so'z yuritadi. Maqolada Kaufmanning shaxsiy fazilatlari, jumladan, uning sadoqati, harbiy jasorati, insonparvarlik tamoyillari, musulmon xalqlari bilan o'zaro hurmat asosidagi munosabatlari va oila hayoti tafsilotlari ham keltirilgan. Tarixiy manbalar asosida tayyorlangan mazkur maqola Rossiya-Turk urushlari, Kavkaz siyosati va XIX asr harbiy-diplomatik munosabatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Konstantin Petrovich fon Kaufman, Kavkaz urushi, Imom Shomil, Guni, Dargo, Qrim urushi, Kars qal'asi, razvedka, rus-turk urushlari, Rossiya imperiyasi, harbiy tarix, musulmon xalqlari, harbiy axloq, XIX asr, Sevastopol mudofaasi, fortifikatsiya, Yuliya Mavrikievna Berx, Kavkaz siyosati, Muravyov-Karskiy, Vilyam-Fenvik Vilyams.

1843-yil 14-martdan boshlab K.P. fon Kaufmanning Kavkazdagi 14 yillik xizmat davri boshlanadi. U darhol “uzluksiz to‘qnashuvlar, og‘ir yurishlar va bulutlar ostida joylashgan tog‘ qishloqlarining qahramonona hujumlari muhitiga tushdi”. Kavkazda “qattiq” va uzoq davom etgan urush olib borilar edi. Mintaqani Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘sish bo‘yicha deyarli yuz yilga cho‘zilgan jarayon nihoyatda murakkab kechdi. Ayrim xalqlar imperiya tarkibiga tinch yo‘l bilan qo‘silgan edi. Tarixan Gruziya, Armaniston, Kabarda, Osetiya va boshqa hududlar Rossiyaga intilgan edi. Ba’zi hududlar esa katta harbiy kuch sarflab zabit etildi. Bu orada mintaqaga hududiga qo‘schni davlatlar tomonidan qilinayotgan tajovuzlarga ham harbiy kuch bilan qarshi turishga to‘g‘ri kelgan. **Tiflis** markazi bo‘lgan “Kavkaz o‘lkasi” maxsus boshqaruv shakliga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri imperatorga bo‘ysunardi. **1816-yilda** mintaqadagi barcha rus qo‘sishlari general **Aleksey Petrovich Yermolov** (1777–1861) qo‘mondorligi ostida Kavkaz korpusi tarkibiga birlashtirildi. Yermolov Kavkazdagi rus xizmatining asosiy vazifalarini quyidagicha belgilagan edi: “... talon-tarojga yo‘l qo‘ymaslik, hech bir bosqinga jazosiz qoldirmaslik, ikkinchi qadamni birinchisidan avval tashlamaslik, harbiy bazalar, tayanch punktlar qurish, istehkomlar va yo‘llar barpo etish” K.P. fon Kaufman Kavkazga Checheniston, Dog‘iston va Shimoliy-G‘arbiy Kavkazda tog‘lik xalqlarning bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi avj olgan davrda kelgan edi. Tog‘lik xalqlar (Yevropada ularni “cherkeslar” deb atashgan) ichki nizolar, o‘zaro urushlar, vabo epidemiyasi bilan zaiflashgan edi, biroq ularning deyarli barchasini **myuridizm** targ‘ibotining kuchli da’vati va **Qozimullo** tomonidan e’lon qilingan ruslarga qarshi **gazavot** birlashtirdi Qozimulloning g‘azabli chaqiriqlari erkinliksevar

jangchilarda quroq olish ishtiyoyqini yanada kuchaytirdi. Qozimullo faqat **Avaristonda** muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Avarlar — o'zlarining metallga naqsh solish, tosh va yog'och o'ymakorligidagi mohirligi bilan mashhur bo'lgan xalq — myuridizm targ'ibotchisini qabul qilishmadni. Musulmonlar orasidan, ayniqsa "hukumatga sadoqatli va fidokorligi bilan tanilgan", avvalo **avar qabilasi vakillari** orasidan myuridizmga qarshi kurashda ishtirok etuvchi **mahalliy musulmonlardan tashkil topgan maxsus qismlar** tuzilgan edi Qozimullo **1842-yil 17-oktabrda** halok bo'ldi, ko'p o'tmay uning o'rribosari **Gazmat-bek** ham o'ldirildi. Harakat boshiga Qozimulloning boshqa bir safdoshi — **Shamil (1797-yilda tug'ilgan)** keldi. 1834-yilda u (Shamil) o'ziga imom unvonini berdi, deyarli tik qoyada joylashgan, o'zi "Axulgo" ("Panoh joyi") deb atagan mustahkam tayanch nuqtasini barpo etdi (bu joy 1839-yilda qulab tushgan), va myuridizm targ'ibotini davom ettirdi. Shamilning qarorgohi Dargo qishlog'ida joylashgan edi, bu joy 1845-yil may–iyul oylarida amalga oshirilgan harbiy yurish (Dargo yurishi — "eng qonli va mutlaqo ma'nosiz") natijasida yakson qilindi. Vaziyatni real baholagan holda, Shamilning naiblari (ya'ni vakillari, o'rribosarlari) — kuchli, jasur va prinsipial kishilar — o'z ixtiyori bilan Kavkazdagagi imperator vakili knyaz A.I. Baryatinskiyga (1815–1879) kelishdi. Keyinchalik, 1859-yil 26-avgust kuni, Kavkazdagagi eng yirik qishloq — Gunibda Shamil ham g'olib oldida taslim bo'ldi. (Hayotining qolgan qismini u o'zining ko'plab haram a'zolari bilan birga Kalugada, so'ngra Kiyevda tinch hayot kechirgan. U haj safariga chiqib, Makka va Madina shaharlariga borgan, aynan shu yerda vafot etgan. Gunibning qahramonona bosib olinishi va Shamilning asirga olinishi myuridizm targ'ibotiga hal qiluvchi zarba berdi va Kavkazdagagi harbiy harakatlarning asta-sekin to'xtashiga olib keldi. K.P. fon Kaufman uchun Kavkazdagagi xizmat davri — "qattiq jangovar tayyorgarlik" va "ma'naviy sinovlar" yillari bo'ldi. Bu davrda u Sharq bilan ilk bor tanishdi, diplomatiya tajribasini, sharqiy odob-axloq qoidalari o'rgandi, turk tilini o'zlashtirdi, islam asoslarini o'rgandi va Qur'onne o'qidi. U Dog'iston piyoda polkining 3-batalyoni, Kavkaz savyor batalyonni, leyb-gvardiya savyor batalyoniga qo'mondonlik qilgan, shuningdek, Kavkaz mustaqil korpusi shtabida katta adjyutant lavozimida xizmat qilgan. U bu lavozimda knyaz M.S. Vorontsov (1782–1856), general N.N. Muravyov-Karskiy (1794–1866) va general M.Z. Arguntinskiy-Dolgorukov (1797–1855) — Armanistonning birinchi patriarxi Iosif Arguntinskiyning nabirasi — qo'mondonligida ishlagan. "Harbiy jasorat", "dushman bilan janglardagi alohida mardlik va shijoat", "namunali va fidoiy xizmat", "janglardagi farqlanish", "o'q otishlarda ko'rsatgan alohida jasorat" — bular K.P. fon Kaufmannning xizmat ro'yxatidagi o'zgarmas tavsiflar bo'lib, bu ro'yxat unga navbatdagi harbiy unvonlar berilishi, ordenlar, pul mukofotlari, "monarx minnatdorchiligi" bilan mukofotlanishi va 15 yillik xizmat nishoni bilan taqdirlanishi (1856-yil 22-avgust) haqidagi yozuvlar bilan to'ldirilgan. Zabit va askarlarga mehr bilan munosabatda bo'lishi, jangovar operatsiyalardagi jasorati va qat'iyati munosib baholangan. Harbiy xizmatchilar, ayniqsa, oddiy askarlar va kichik zabitlar, K.P. fon Kaufmanni nafaqat burchni chuqur his etishi, jasorati, vaziyatlarni tez va aniq tahlil qilishi va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishi uchun, balki uning nozikligi, mehribonligi va tabiiy hazilkashligi uchun ham hurmat qilishgan. Bunga, xususan, u yillar o'tgach general N.I. Grodikovga aytib bergen quyidagi voqealari bo'la oladi... Choh — Qavqoz hududidagi eng qadimiy aholi punkti bo'lib, u baland tog'lar orasida joylashgan va uch tomondan ikki metrli tosh devorlar, to'rt dona minoralar bilan o'ralgan. Ularni mohir misrlik muhandis qurib bergen.

Shu yerda K.P. fon Kaufman va uning o‘quv yurti bo‘yicha do‘sti E.I. Totleben Qavqoz jangovar korpusi boshlig‘i, qadimiy urfdagi harbiy — knyaz M.Z. Argutinskiy-Dolgorukovga shunday deyishdi: “Epolementlarni qurish kerak.” General bu so‘zning harbiy-texnik ma’nosini tushunmaganidan Kaufman ... Kavkazdagи harbiy xizmat K.P. fon Kaufman uchun yana shuning bilan muhim bo‘ldiki, u bu yerda oila qurgan. Uning rafiqasi — Yuliya Mavrikievna Berx (1820–1906) bo‘lib, u Qora dengiz floti bosh qo‘mondoni bo‘lgan admiral Mavrikiy Borisovich (Morits Anton Avgust) Berx (1776–1860) va Mariya Nimaning qizi edi. Berxlar — XVI asrdan Livlandiyada yashagan, Vestfaliyadan chiqqan qadimiy zodagonlar sulolasidir. Kaufman oradan yillar o‘tib, o‘sha yillardagi oilaviy hayotlarini eslab, ular oyiga 30 rubl bilan yashashganini ... 1855-yil 19-fevraldan boshlab Rossiya imperatori bo‘lgan Aleksandr II taxtga chiqqach, Sharqiy inqirozni hal qilish va Turkiya bilan olib borilgan Yangi Qrim urushini yakunlash majburiyatini oldi. Bu urush dastlab rus-turk urushi bo‘lib, 1854-yil 15-martdagi bitimdan so‘ng Turkiya Angliya, Fransiya va 1855-yildan Sardiniya qirolligi bilan ittifoq tuzganidan keyin umumiyl Yevropa urushiga aylangan. K.P. fon Kaufman Kavkaz armiyasi bosh qo‘mondoni general-ad‘yutant N.N. Muravyov (Karskiy) boshchiligidagi harakatlarda faol ishtirok etdi... K.P. fon Kaufman Kavkazdagи harbiy harakatlarda ikki marta yaralangan. 1845-yilda Dargin yurishi davomida, general R.K. Freytag qo‘shini bilan qo‘shilish vaqtida, Bosh shtab boshlig‘i huzurida ad‘yutantlik qilayotganda, unga dushman miltig‘idan o‘q tegdi — o‘q bo‘ynining o‘ng tomoniga, qulqoq yoniga kelib tushdi. 1849-yil 23-iyuldan 24-iyulga o‘tar kechasi bo‘lib o‘tgan “№8 batareya uchun teshik ochish” jarayonida yana miltiq o‘qi oyog‘ining chap panjasini teshdi.

Oradan yillar o‘tgach u shunday degan: “To‘g‘risi, har bir odam o‘q yeganda... 1854-yil sentabr oyida 62 ming kishilik ittifoqchi Yevropa qo‘shinlari desanti Qirimda, Yevpatoriya yaqinida qirg‘oqqa tushirildi. Shu bilan birga Sevastopolning 349 kunlik qahramonona mudofaasi boshlandi. “Qrim yarimorolidagi toshli to‘rtburchak shaklidagi hududda qahramonona va fojiali urush kechdi”, – deb eslashadi keyinchalik bu voqealarning ishtirokchilari (Sevastopol mudofaasi vaqtida 128 ming himoyachi halok bo‘lgan).. Urush Turkiya va uning ittifoqchilari bilan ikki frontda – Qirimda va Kavkazda olib borildi. Kavkaz tomonidan Rossiya qo‘shinlari Turkiya ichkarisiga qarab harakatlana boshlaganida, ularning yo‘lini inglizlar tomonidan mustahkamlangan Karss qal‘asi to‘sib turardi. Turk armiyasi ochiq jangda yengilgach, Karssga joylashdi. Qal‘a mudofaasiga ingliz generali Uilyams boshchilik qilardi... General-ad‘yutant Nikolay Nikolaevich Muravyov o‘zining shtab boshlig‘i K.P. fon Kaufmanga Karss qal‘asida joylashgan turk qo‘shinlarining soni, qal‘aning mudofaa vositalari va oziq-ovqat zaxiralari haqida ma’lumot to‘plashni topshirdi. Biroq asirlar va o‘tib ketgan dezertirlar bu ma’lumotni taqdim qila olishmadi... Karssda Usmonlilar tarafida ko‘plab xorijlik professional harbiylar — 1830-yilgi Polsha inqilobi va 1848-yilgi Vengriya inqilobi ishtirokchilari jang qilardi. Ularning aksariyati islomni qabul qilgan va xristian ismlarini o‘zgartirgan edi. Generallar orasida ikki nafar venger — pasha Kmeti va Kölman ham bor edi. Qal‘a rasmiy bosh qo‘mondoni — Vassif-pasha, amalda esa garnizon boshqaruvi ingliz — Uilyam Fenvik Uilyams (1800–1883) qo‘lida bo‘lgan — u qal‘a mudofaasining “ruhi” edi... K.P. fon Kaufman ma’lumotlarni atrofdagi aholi punktlari orqali yig‘ishni boshladidi, xususan, ular yaqinda qal‘aga qancha va nima olib kirgani haqida so‘rab chiqdi.

Shuningdek, to‘liq blokadani ta’minalash imkoniyati yo‘qligi sababli, “qat’iy kuzatuv” taktikasini qo‘lladi: harakatchan otliq “uchuvchi otryadlar” barcha yo‘llarni to‘sib qo‘ydi va Karss tomon yo‘l olgan har qanday transport karvonini to‘xtatdi. Natijada shahar oziq-ovqat yetkazib berishdan butunlay uzildi... Kaufman o‘zining yig‘gan ma’lumotlariga va hisob-kitoblariga to‘liq ishonar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чижов Б.И. Биографический очерк. С. 13; Шишов А.В. Схватка за Кавказ XVI — XXI века. М. 2007. С. 350
2. ЦГА руз. Ф. И-1. Оп. 33. Д. 305. Л. 107. 60
3. ЦГА руз. Ф.И-1. Оп. 32. Д. 11. Л. 4.
4. Эвальд А.В. Воспоминания о К.П.фон Кауфмане // Исторический вестник. 1897. № 10. С. 184 — 199.
5. Boltayev, O. (2024). QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
6. Obid o’g’li, B. O. QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
7. Boltayev, O. (2024). BUKHARA’S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
8. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA’SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
9. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
10. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG’ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
11. Boltayev, O. (2025). XITOY (SIN) IMPERIYASINING JUNG ‘OR XONLIGINI ISTILO QILISH ARAFASIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY VAZIYAT. *Modern Science and Research*, 4(2), 1029-1037.
12. Boltayev, O. (2025). XITOY (SIN) IMPERIYASINING JUNG ‘OR XONLIGINI ISTILO QILISH ARAFASIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY VAZIYAT. *Modern Science and Research*, 4(2), 1029-1037
13. Boltayev, O. (2025). XVIII ASR BOSHLARIDA BUXORO XONLIGI HUJUMLARI VA HUKUMRON QATLAMNING ULARGA QARSHI HARAKATLARIGA UMUMIY TAVSIF. *Modern Science and Research*, 4(3), 791-799.
14. Boltayev, O. (2025). XVIII ASR O ‘RTALARIDA MARKAZIY OSIYODAGI SIYOSIY VA XALQARO MUNOSABATLARIGA ERONNING TA’SIRI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1457-1466